

MUOMALA MADANIYATINING TIBBIYOTDAGI MUHIM O‘RNI



Kasimova Muxabbat Pirnazarovna

*Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi
Toshkent viloyat filiali Ambulatoriya bo‘limi laboranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muomala madaniyatining tibbiyot sohasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Sog‘liqni saqlash tizimida bemor va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi samarali muloqot jarayoni davolash samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda tibbiyotda etik muomala qoidalari, shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchning ahamiyati, shuningdek, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish usullari yoritilgan. Maqolada bemorlarning psixologik holatini inobatga olgan holda muomala madaniyatini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: muomala madaniyati, tibbiyot, shifokor-bemor munosabatlari, kommunikativ ko‘nikmalar, etik qoidalar, tibbiy etika, sog‘liqni saqlash, psixologik yondashuv.

Muomala madaniyati tibbiyot sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonchli hamkorlikni ta‘minlash, davolash jarayonining samaradorligini oshirish hamda insoniy munosabatlarni mustahkamlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tibbiyot sohasi nafaqat ilmiy bilim va tajribaga, balki insoniylik, e‘tibor, hurmat va sabr-toqat kabi fazilatlarga ham tayanadi.

Zamonaviy tibbiyotda bemorlarning ruhiy holatini tushunish, ularning tashvish va muammolariga quloq tutish muhim sanaladi. Shifokorlarning odob-axloqi, muloqot madaniyati va professionalligi tibbiy xizmat sifatiga bevosita ta‘sir qiladi. Shu sababli, tibbiyot xodimlari uchun faqat kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish emas, balki insonlar bilan muloqot qilish, ularning hissiy holatini tushunish va to‘g‘ri yondashuvni tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat va ma‘naviyat tushunchalari zohiriylik bilan botiniylikning real ko‘rinishidir. Madaniyat biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan muammoning tashqi tomoni bo‘lsa, ma‘naviyat esa ichki tomonidir. Madaniyat inson ichki dunyosining, xususan, yetuk tafakkur taraqqiyotining mahsulidir. Ma‘naviyat madaniyatning ta‘siri ostida shakllanib boradigan, insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning irodasini baquvvat, iymon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me‘zonidir. Xullas, o‘zida chuqur, keng qamrovli ma‘no-mazmuni mujassam etgan bu tushunchalar o‘rtasida

o'zao aloqadorlik mavjud. Chunki madaniyat tushunchasi, keng ma'noda, insoniyat aqli-zakovati va tafakkurining yutuqlarini, tor ma'noda esa, uning hayot tajribasi asosida vujudga kelgan, yuksak insoniy malaka va ko'nikmalarni, xatti-harakat va faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat esa insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, insonning hayotidagi g'oyaviy, diniy va axloqiy qarashlarini o'zaro to'liq mujassam etadigan tushunchadir. Madaniyatning ham, ma'naviyatning ham umumiy tomonlari bor. Ularning umumiy tomoni ijtimoiy mazmun kasb etishi bo'lsa, xususiy tomoni, muayyan shaxs dunyosida, xulq-atvori va faoliyat natijalarida namoyon bo'lishidir.

Odob qoidalariga amal qilish xulq-atvor madaniyatining muhim elementidir. Shini alohida qayd etish lozimki, bu holatni hamma kishilar bir xil qabul qila bilmaydilar. Ba'zilar uni inson ma'naviy boyligidan yuqoriroq o'ringa qo'yib "mustahkam va mutlaq" bo'lishini talab qiladilar. Ba'zi bir odob himoyachilari esa, turli xil qoidalar to'plamlaridan hayotning har xil holatlari uchun xulq-atvor to'g'risidagi tayyor yo'l-yo'riqlarni qidiradilar. Boshqa bironlari esa odob qoidalariga nopisand ko'z bilan qarab, ularni muomalani erkin bo'lishiga xalaqit beruvchi ortiqcha shart va takalluf deb hisoblaydilar. Ko'rinib turibdiki, har ikki nuqtai nazar ham noo'rin. Odob qoidalariga insonlar qanday munosabatda bo'lmasinlar, ular har qaysi madaniyatda ham mavjuddir va uning mazmuni kishilar o'rtasidagi muomalaga ko'mak berishdan iboratdir. Odob qoidalarida kishilarga e'tibor va hurmat belgilarining jami ifoda etilgan. Ular asrlar davomida kishilarning muomala jarayonini osonlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan xulq-atvorning ko'pginormalarini o'zida mujassam etgan. Psixologlarning aytishicha, har jihatdan bir xil bo'lgan ikki kishini topish qiyindir. Bu gap madaniyat darajasini aniqlashga taalluqlidir. Hatto asosiy madaniy boylıklarga ham kishilar turlicha nazar bilan qaraydi, turlicha fikrlaydi, his etadi, bir-biriga murojaat qiladi. Bu tabiiydir, chunki madaniyatning o'zi beqiyos darajada turli-tuman, uning boylıkları esa g'oyat katta, kishilar hayyoti va tarbiyasining sharoitlari esa xilma-xil.

Muomala madaniyati tibbiyot sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bemor va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlash, davolash jarayonining muvaffaqiyatli kechishi hamda bemorning psixologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Quyida muomala madaniyatining tibbiyotdagi asosiy jihatlari haqida so'z yuritamiz.

Tibbiyotda muomala madaniyatining ahamiyati

- Ishonchni shakllantirish – Shifokorning bemor bilan samimiy va hurmatli munosabatda bo'lishi, bemorning unga ishonchini oshiradi.
- Samarali davolash – Tibbiy tavsiyalar bemorga to'g'ri va tushunarli tarzda yetkazilganda, ularni bajarish ehtimoli ortadi.

•Psixologik ta'sir – Bemorga nisbatan mehribonlik va e'tibor uning ruhiy holatini yaxshilaydi, stressni kamaytiradi va tezroq sog'ayishiga yordam beradi.

Tibbiyot xodimlarining muomala madaniyati

•Muloyimlik va hurmat – Har bir bemorga e'tiborli bo'lish, uning shaxsiy fikrini hurmat qilish lozim.

•Faol tinglash – Shifokor va hamshiralar bemor shikoyatlarini diqqat bilan eshitishlari va aniq savollar berishlari kerak.

•Tibbiy etika va maxfiylik – Har bir bemorning shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanishi, tibbiy etika normalariga rioya qilinishi zarur.

Bemorning muomala madaniyati

•Hurmat bilan muomala qilish – Shifokor va tibbiyot xodimlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhim.

1. Ochiq muloqot – Bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yish va davolash uchun ularning aniq va tushunarli ma'lumot berishlari kerak.

•Tibbiy tavsiyalarga rioya qilish – Shifokor bergan maslahat va dori-darmonlarni belgilangan tartibda qabul qilish muhimdir.

Xulosa: Muomala madaniyati tibbiyotda nafaqat shifokorlar va bemorlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi, balki sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini ham oshiradi. Hurmat, mehribonlik va tushunish asosida qurilgan muloqot tibbiyotning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Юлдашева, С. (2019). Китоб мутолаасини шакиллантиришда кутубхоначилик фаолияти. *Oriental Art and Culture*, (IV (1)), 59-62.

2.Yuldasheva, S., & Madumarova, M. (2020). TASKS AND CONTENT OF BIBLIOGRAPHIC WORKS. *European Journal of Arts*, (1), 148-152.

3.Karimov I A. Asarlar. 1-13 tom. T.: O'zbekiston, 1996-2006.

4.Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-tom. T.: Ma'naviyat, 1998